



QADRIYAT TUSHUNCHASINING TUZILISHI VA UNING MAZMUNI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi
Yuldoshev Tojiddin Abdukarimovich
tojiddinyuldoshev1@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti o'qituvchilari

Annotatsiya: Dunyoda oilalar orasida nizoli vaziyatlarni bartaraf etish dolzarb muammolardan biri bo'lib, ular orqali yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlarni bartaraf etishning ma'naviy qadriyatlarga asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: globallashuv jarayoni, nizoli vaziyatlar, qadriyatlar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat.

Abstract: The elimination of conflict situations between families is one of the urgent problems in the world, and comprehensive scientific research is being conducted on the issues of developing mechanisms based on moral values to eliminate the negative consequences arising from them.

Key words: globalization process, conflict situations, values, freedom, peace, justice, social equality, enlightenment, truth, goodness, beauty, material and spiritual wealth, tradition, custom.

Абстракт: Устранение конфликтных ситуаций между семьями является одной из актуальных проблем в мире, и проводятся комплексные научные исследования по вопросам разработки механизмов, основанных на моральных ценностях, для устранения вытекающих из них негативных последствий.



Ключевые слова: процесс глобализации, конфликтные ситуации, ценности, свобода, мир, справедливость, социальное равенство, просвещение, истина, добро, красота, материальные и духовные блага, традиция, обычай.

KIRISH

Bugungi kunda oilalar oʻrtasida nizoli vaziyatlarni bartaraf etish Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining alohida muammosi hisoblanadi. Jamiyatda mazkur muammolarni bartaraf etish uchun mamlakatimizni demokratik yangilash, modernizatsiyalash, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, fuqarolarning eʼtiqod erkinliklarini taʼminlashda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan juda koʻplab ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” farmonida koʻzda tutilgan “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”, Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — taraqqiyot strategiyasi sari” gʻoyasini keng targʻib etish orqali jamiyatda sogʻlom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish va «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-81-son farmonida va shu faoliyatga tegishli boʻlgan boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan masalalarni hal qilishga maʼlum darajada xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA MUNOZARA

Jahonda yuzaga kelayotgan oʻzgarishlar zamirida rivojlanayotgan jamiyat oʻz taʼsiri doirasida insonlarning qadriyatlariga ham sezilarli darajada oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Oʻz navbatida mazkur omillar sabab insonlarning dunyoqarashi va xulq-atvori ham oʻzgarib bormoqda. Olimlar esa mazkur oʻzgarishlarning konstruktiv va destruktiv jihatlari borligini alohida taʼkidlab oʻtadilar. Shu boisdan ham bugungi kunda inson ruhiyatini oʻrganuvchi olimlar qadriyatlarni oʻrganish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlariga koʻproq eʼtibor qaratmoqdalar.



Qadriyat deganda inson uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi. “Qadriyat” aslida arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “qiymat”, “ahamiyat”, “qimmatbaho buyumlar”, “xalq boyligi” degan ma’nolarni anglatadi.

Qadriyat falsafiy jihatdan esa “... inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan shakllar, xolatlar, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblarning qadrini ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya” hisoblanadi.

Qadriyat ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyatdir. Inson yo‘q joyda biror bir narsaning qadr-qimmati haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e‘zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining ham asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, islohotlarning barchasi kishilar hayoti farovon, boy, go‘zal bo‘lishi, inson o‘zini chinakam erkin his qilishi, o‘z mehnati natijasi, o‘z taqdiri, o‘z mamlakatining egasi bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgandir.¹

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. ²uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiytenglik, ma‘rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma‘naviy boyliklar, an‘ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Qadriyat tushunchasi va uni ilmiy jihatdan o‘rganish metodini birinchi bo‘lib M.Veber olib kirgan. Olim shaxs xatti-harakatlarining ratsional-qadriyatlarga yo‘nalganligiga to‘xtalib

1. Nazarov Q Falsafa asoslari.-T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashryot, 2012-b.755.

2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 12- bet



o'tar ekan, mazkur yo'nalganlik insonning doimo jamiyat me'yorlariga va talablariga bo'ysunuvchi harakatlarini nazarda tutadi. Shu boisdan inson bu me'yorlariga va talablariga rioya qilishni zarur deb biladi. M.Veber qadriyat va din tushunchalari o'rtasidagi farqli jihatlarini ham alohida ajratib o'tadi. Olimning fikricha, qadriyatlar insonlar xatti-harakatarini tartibga soluvchi, din esa ularning hayoti davomida yuzaga keluvchi savollar va muammolarga javob beruvchi omil hisoblanadi.

M.Veberning din va qadriyat tushunchalari borasidagi qarashlaridan farqli ravishda E.Dyurkgeym qadriyatlarni ijtimoiy munosabatlar zahirida yuzaga keluvchi shaxsdan ham yuqori turuvchi kategoriya sifatida baxolaydi. E.Dyurkgeym nazariyasining asosiy mazmuni qadriyatlarning falsafiy muammolarini yechimini topish va shu yo'sinda ba'zi noto'g'ri qarashlarni bartaraf etishga qaratiladi.

E.Dyurkgeym fikricha, jamiyat barcha qadriyatlarni o'z ichiga oladi va shu boisdan ham ular ma'lum bir haqiqatlarga asoslanadi. Shuningdek, insonlarni boshqarish ko'pincha qadriyatlarga yo'nalganligi orqali amalga oshiriladi. Bunda asosan ijtimoiy normalar va qadriyatlarning ahamiyatlilik darajasi tenglashtiriladi. Olim qadriyatlarni quyidagi guruhlariga ajratadi:

- iqtisodiy qadriyatlar;
- etik qadriyatlar;
- diniy qadriyatlar
- estetik qadriyatlar

E.Dyurkgeym fikricha qadriyatlar individual bo'lib jamiyatga va jamoaviy tafakkurga ta'sir o'tkazuvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Din esa butun jamiyatning qadriyatlarini belgilab beradi. Din e'tiqod va marosimlarning maxsus tizimi bo'lib, jamoaviy yoki yakka tartibda diniy amallarni bajaruvchi maxsus joylar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

Qadriyat umumiy mazmuniga nisbatan, sub'ekt tomonidan ob'ektiv voqelik sari yo'naltirilgan, eng muhim maqsadlar va ma'noni o'z ichiga olgan, ma'lum intilishlarni o'zida



mujassam etgan ixtiyoriy, hissiy, intellektual kechinmalar majmuasi sifatida qaraladi. Qadriyat sub'ektiv kechinmalarni keltirib chiqaradigan ob'ektlarning ma'nolari va ularni yaratishdan iborat bo'lgan ma'naviy ijod namunasi sifatida tushuniladi. Qadriyat bu holda borliqning mazmunli maqsadi sifatida tushuniladi va shaxsning ob'ektlarga bo'lgan munosabati hodisasidir.

Qadriyatlarga oid izlanishlar olib borgan olimlardan Platon, V.Vindelband, G.Rikert, M.Sxeler, N.Loskiylar na tabiatga, na insonga tegishli bo'lmagan transsendent "qadriyatlar olami"ni ta'kidlab o'tishganlar. O'tmishdagi ko'plab mutafakkirlarning fikriga ko'ra, qadriyatlarning yagona ma'nosi, ideal, Ilohiy mavjudot tomon intilishdan iborat deb hisoblaganlar.

Yuqorida qayd etilib o'tilgan olimlardan farqli ravishda noklassik dunyoqarash olimlari psixozanaliz nazariyalaridan foydalangan holda insoniy qadriyatlarning asosiy mazmunini hokimiyat tamoili va zavqlanish hissi tashkil etadi deb ta'kidlaydilar. Shunday bo'lsada, ikkala yo'nalishdagi yondashuvlar ham qadriyatlarni – shaxsiy va umuminsoniy intilishlarni aks ettirish ko'rsatkichi sifatida qaraydilar.

Qadriyatlar komillikka erishishga qaratilgan, shaxs va uning atrofidagi dunyoning ichki rivojlanishi uchun ma'noli jihatlari bilan to'ldirish orqali ijodiy ta'sir ko'rsatadigan ong va borliqning ustunlari sifatida tasniflanishi mumkin. Qadriyatlar inson va uni o'rab turgan olamni ahamiyatli rishtalar bilan bog'laydi hamda bu munosabatlarni kerakli tomonga o'zgartiradi.

Qadriyatlar - axloq nuqtai nazaridan ijobiy ma'noga ega bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Qadriyatlar jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlar, shu jumladan ³shaxslararo munosabatlar, insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi kabi muhokama qilinmaydigan xatti-harakatlar qoidalari bilan chambarchas bog'langandir.

3 Вебер М. Основные социологические понятия // Избранные произведения: пер. с нем. М. : Прогресс. 1990. Умумий 808 с. (1, с. 629)

4 Дюркгейм Э. Ценностные и «реальные» суждения: пер. с фр. А.Б. Гофмана // СОЦИС. 1991. №2. С. 106–114.



Qadriyatlar tizimi nafaqat insonning xulq-atvor muhitini tartibga soladi, balki shaxsning ma'naviy tuzilishini shakllantirishga ham ta'sir qiladi. Qadriyatlar inson taraqqiyoti yo'lini belgilashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlarni o'rganish mobaynida uni quyidagi turlarga ajratilib ko'rsatiladi:

- ma'naviy qadriyatlar
- estetik qadriyatlar
- diniy qadriyatlar

Ushbu tushunchada qadriyatlar har qanday madaniyatning boshlang'ich tamoyillari bo'lib, "madaniyatning asosi va poydevori" sifatida qaraladi. O'z navbatida jamiyat madaniyatining mohiyati va o'ziga xosligini belgilaydi. Bu inson mavjudligini hayvonlar mavjudligidan ajratib turadigan qadriyatlardir. Madaniy rivojlanish darajasi jamiyatning barcha sohalarida - siyosatda, fanda, iqtisodda, dinda, huquqda, san'atda, axloqda qadriyatlarni anglash va ularning munosabatlarini amalga oshirish darajasi bilan belgilanadi.

Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy qadriyatlarga yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi.

Inson mehnati, xatti-harakati, aql-zakovati tufayli "ikkinchi tabiat"ni yaratadi. Bu tabiat tarkibiga turli-tuman moddiy boyliklarni kiritishimiz mumkin. Ana shunday mehnat natijasida yuzaga kelgan zavodlar va fabrikalar, ishlab chiqarish va transport vositalari, asbob-uskuna, turar-joy, mol-mulk, inshoot va shu kabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Moddiy qadriyatlarning negizini mulk tashkil etadi.

Inson hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rin egallaydi. Unga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokazolar kiradi.



Jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar esa alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida eng zaruriylari - erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e‘zozlangan va qadrlanganlar hisoblanadi. Insonning erkinligi, uning shon-shuhrati va qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida istiqbol tufayli qo‘lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an‘analarini, jamiki moddiy va ma‘naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotini barcha tomonlarini qamrab oladi. Inson uchun ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy, axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida salmoqli o‘rin egallab, kishilarning insoniy fazilatlarini yuksaltirishda katta xizmat qilib kelmoqda. Qadriyatlar jamiyat hayotida ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o‘tmish bilan hozirgi kun o‘rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi, shu tufayli millatning tarixi, uning o‘tmish hayoti, madaniyatida gavdalanadi.

Har bir millat, har bir xalq o‘z hayot tarzida, kelajagini barpo etishda ajdodlarining tarixiy tajribasiga asoslanadi. Avvalo inson o‘zligini anglab yetishi kerak. O‘z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma‘naviyat boyliklari xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Umuminsoniy ma‘naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig‘idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko‘rish va kuzatishga undaydi.

Ulug‘ bobokalonlarimiz Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy va boshqalarning nomlari jahon xalqlari tomonidan hanuzgacha hurmat bilan tilga olinib kelinmoqda. Markaziy Osiyo mutafakkirlari yaratgan fan va madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatli fikr-mulohazalar bugungi kunda ham jahon xalqlari ma‘naviyat dunyosini boyitib, ularning ma‘naviy kamolotiga xizmat qilmokdiki, bundan biz faxrlansak arziydi.



Ota- bobolarimizdan bizga qoldirilgan boy ma'naviy merosni avaylab, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish eng muhim zaruratdir.

Shuning uchun, kishilarda ijtimoiy qadriyatlar, buyuk kelajak, taraqqiyotga bo'lgan ishonchni, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga bo'lgan e'tiqodni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Hozirgi bosqichda jamiyatimiz o'z taraqqiyot tarixida muhim davrni boshdan kechirmoqda va bu faoliyatning barcha jabhalarida o'z ifodasini topmoqda. Jahonda globallashuv jarayoni bir millat turmush tarziga boshqa millatning madaniyat modellari kirib kelishiga zamin yaratmoqda. Bu jarayon esa jamiyatda mavjud madaniyatga kuchli ta'sir o'tkazib ma'naviyatni pasayishiga olib kelmoqda. Bu muammolar har qachongidan ham zamonaviy jamiyatning o'zini o'zi saqlash va yanada rivojlantirish uchun ijtimoiy qadriyatlarni tiklash va asrab-avaylash zarurligi dolzarblashib bormoqda. Jamiyatda kechayotgan yangilanish jarayonlari zamonaviy dunyoda faol va mas'uliyatli bo'lishga qodir ma'naviyatli shaxsni shakllantirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish muammosi bugungi kunda eng dolzarb va har tomonlama tushunishni talab qiladigan muammolardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda shaxsning ijtimoiy qadriyatlari va hayotiy yo'nalishlarini shakllantirishda oilaning o'rni katta, aslida u shaxsning dunyoqarashi va me'yorlarining shakllanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Bizningcha, oila ma'naviy-ijodiy shaxsni shakllantiruvchi, inson tug'ilib, tugaydigan o'ziga xos tarbiyadir. Har bir insonning uyi va oilasi osoyishta go'sha, haqiqiy ma'naviy shaxs shakllanishi mumkin bo'lgan hududga muhtoj. Yosh avlod ma'naviy olamini pokiza saqlashda keksa avlod qonunlariga amal qilish ham muhim omil bo'lmoqda.



Bundan kelib chiqqan holda, hozirgi bosqichda oilaviy an'analarni tiklash va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish umidsizlik va jamiyat ma'nosini yo'qotishdan qochishga yordam beradi, deb taxmin qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, shaxsning ichki dunyosini himoya qilishni asrash, shaxs ichidagi og'ir nizolar xavfini oldini olish yoki yumshatish, bizningcha, insonning buguni va yertasi mustahkam yashashining eng muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Falsafa asoslari.-T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashiryoti, 2012-b.755.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 12- bet
3. Вебер М. Основные социологические понятия // Избранные произведения: пер. с нем. М.: Прогресс. 1990. Умумий 808 с. (1, с. 629)
4. Дюркгейм Э. Ценностные и «реальные» суждения: пер. с фр. А.Б. Гофмана // СОЦИС. 1991. №2. С. 106–114.
5. Дюркгейм Э. Элементарные формы религиозной жизни. Тотемическая система в Австралии // Мистика.
6. Подробнее о различных подходах к пониманию категории «ценность» см. в: Баева Л.В. Ценности изменяющегося мира: экзистенциальная аксиология истории: Монография. Астрахань, 2004.
7. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – 543 с. (Фой 429)
8. Бердяев Н.А. Смысл истории. – М.: Мысль, 1990. – 268 с. (фой 164)
9. Abu Rayhon Beruniy Tanlangan asarlar. 1-tom. –T.: Fan.- 1968.
10. A. Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq". –T.: "O'qituvchi".- 1993.



11. Melikboboyevich, S. U., & Abdukarimovich, Y. T. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE TREATMENT OF PERSONAL AGGRESSION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 26-30.
12. Yuldashev, T. (2022, February). Measures to eliminate or prevent the manifestation of personality aggression. In *Conference Zone* (pp. 227-229).
13. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
14. Abdukarimovich, Y. T., & Melikboboyevich, S. U. (2022). FORMING A RESPONSIBLE ATTITUDE TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 653-657.